

## 07.10.2024 dan O'zbekiston hududida amal qiluvchi tarif rejalari, tarif paketlari va opsiyalar.

### Tarifkatsiyaning asosiy prinsiplari.

Agar muayyan Tariflarning, jumladan Tarif paketlarining, Tarif opsiyalarining va Qo'shimcha xizmatlarning tavsiflarida boshqasi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lmasa, Tarifkatsiyaning quyidagi prinsiplari amal qiladi:

- Tariflar faqat aloqa xizmatlaridan shaxsan foydalanish maqsadida foydalanuvchi jismoniy shaxslar uchun amal qiladi;
- Barcha Tariflar so'mda QQSni hisobga olgan holda ko'rsatilgan;
- Xizmatlar avans to'lovi orqali to'lanadi (agar muayyan Xizmat yoki Tarif tavsifida boshqasi ko'zda tutilgan bo'lmasa). Avans to'lovining minimal summasi – 10 000 so'm.
- Hisob-kitob davri tanlangan Tarifga qarab 30, 90, 180, 360 kalendar kuniga, agar Tarifda belgilanmagan bo'lsa, 30 kalendar kuniga teng bo'lishi mumkin. Hisob-kitob davri Mijoz har qanday Tarifga ulangan vaqtdan boshlanadi, Tarif paketiga ulanganda Hisob-kitob davri qaytadan kecha boshlaydi.
- Narxlar tarifkatsiya birligida ko'rsatilgan.
- Qo'ng'iroqlarning tarifkatsiya birligi – 1 daqiqa, qo'ng'iroqlarni hisobga olish va tarifkatsiya qilish daqiqabay hisoblanadi, tarifkatsiyaning to'liq bo'lmagan birligi narxi tarifkatsiyaning to'liq birligi narxiga teng.
- Ma'lumotlarni uzatish trafifi hajmi 1 b'dan hisoblanadi. Mobil ilovada ma'lumotlarni uzatish trafifi hajmi 0,1 GB'gacha yaxlitlangan holda aks etadi.
- SMS/MMS'larning Tarifkatsiya birligi – dona.
- O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lganda Provayderning axborot-ma'lumot tizimi raqamlariga qilingan qo'ng'iroqlar va jo'natilgan SMS'lar, shuningdek «HUMANS.uz» ilovasi va «humans.uz» sayti trafifi uchun pul to'lanmaydi.

- Provayder Shartnoma tuzilishida to'lov qilinishi kerak bo'lgan, Xizmatlar uchun oldindan to'lov (avans) sifatida baholanadigan summalarni belgilashga haqli.

Har bir Tarifning narxiga quyidagilar kiritilgan:

- Humans.uz sayti, Humans ilovasi, shuningdek AppStore, GooglePlay (Ilovani yuklash maqsadida) ilovalar do'konidan foydalanish maqsadida 48 soat Mobil internetdan maksimal tezlikda foydalanish imkoni. Ushbu imkoniyatlar Mijozga ilk marta faollashtirilgan SIM-karta uchun har qanday Tarif paketini birinchi marta ulaganida taqdim etiladi.
- Bank va to'lov tashkilotlarining rasmiy ilovalaridan cheksiz foydalanish imkoni: [ro'yxat](#)

O'zbekiston Respublikasining tashqarisida kirish va chiqish qo'ng'iroqlari, SMS va Mobil Internetga [rouming uchun tariflarga](#) muvofiq, xalqaro chiqish qo'ng'iroqlari, SMS'larga - [xalqaro qo'ng'iroqlar uchun tariflarga](#) muvofiq to'lov qilinadi

Qisqa raqamlarga kirish va chiqish qo'ng'iroqlari va SMSlar [alohida tariflar](#) bo'yicha qo'shimcha ravishda to'lanadi. Agar Qisqa raqamlardan foydalangan holda xizmatlar ko'rsatish tariflarida boshqasi ko'zda tutilgan bo'lmasa, Tarifkatsiyaning umumiy prinsiplari, shuningdek [Qisqa raqamlardan foydalangan holda xizmatlar ko'rsatish qoidalaridagi nizomlar](#) hamda [Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlari qo'llaniladi](#).

Agar quyidagi shartlar bajarilgan holatda:

- a) mijoz ketma-ket 32 yoki undan ortiq kalendar kuni davomida pullik Xizmatlardan foydalanmasa;
- b) ketma-ket 32 yoki undan ortiq kalendar kun davomida Mijozning Shaxsiy hisobvarag'idan hech qanday hisobdan o'chirish bo'lmasa;
- c) Mijozda ulangan pullik Tarif paketi yoki pullik Opsiya mavjud bo'lmasa, istalgan tarifda kuniga 400 so'm abonent to'lovi yechib olinadi. Abonent to'lovi har kuni Shaxsiy hisobdagi qoldiq nolga teng bo'lgunga qadar yechib olinadi. Yuqorida ko'rsatilgan abonent to'lovining yechilishi pullik Xizmatdan foydalanish yoki yuqoridagi a) va b) kichik bandlarida ko'rsatilgan Mijozning Shaxsiy hisobi balansidan yechib olish hisoblanmaydi.

## Tarif paketlari

Provayder raqamlariga hamda O'zbekiston va boshqa mamlakatlarning boshqa operatorlari raqamlariga ma'lumotlarni uzatish, ovozli aloqa xizmatlari (kirish va chiqish qo'ng'iroqlari), SMS va MMS'lar taqdim etiladi. SIM-kartani faollashtirishganda Mijoz har bir Abonent raqami uchun Tarif paketini mustaqil ravishda tanlashi kerak.

## Har bir daqiqalar paketi uchun abonent to'loviga quyidagilar kiradi:

- Tanlangan Tarif paketida ko'rsatilgan O'zbekiston Respublikasi raqamlariga chiqish qo'ng'iroqlarining daqiqalari hajmi («Kiritilgan daqiqalar»)
- O'zbekiston Respublikasi bo'ylab Provayder raqamlariga cheklovlarsiz qo'ng'iroqlar.

«Super 0 daqiqa» paketida Provayder raqamlari uchun har kuni chiquvchi qo'ng'iroqlar uchun 20 daqiqa taqdim etiladi.

«Boshlang'ich» tarifi shartlariga ko'ra amalga oshiriladi. «0 daqiqa» paketiga to'plamiga 90/180/360 kunga «150 daqiqa opsiyasi», «300 daqiqa opsiyasi», «600 daqiqa opsiyasi», «2500 daqiqa opsiyasi» ulaganda tarifikatsiya quyidagi 1 jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi:

1 sonli jadval

Qo'ng'iroqning yo'nalishi	Narxi
O'zbekiston Respublikasining operatorlari raqamlariga qo'ng'iroqlar	Daqiqalar opsiyasi doirasida taqdim etilgan daqiqalar sarflanadi. Daqiqalar opsiyasining amal qilish muddati tugaguniga qadar kiritilgan daqiqalar tugasa, daqiqasi — 180 so'm
SMS	Har biri 180 so'mdan

«Cheklanmagan daqiqalar» tarif paketida yoki «Cheklanmagan daqiqalar opsiyasi» ulaganda taqdim etilgan daqiqalar miqdori tegishli Hisob-kitob davridagi daqiqalarning umumiy miqdori bilan chegaralanadi.

## Gigabaytlarning har bir paketi uchun abonent to'loviga quyidagilar kiradi:

- Tanlangan Tarif paketida ko'rsatilgan Internet tarmog'iga maksimal tezlikda kirish imkonini taqdim etuvchi trafik hajmi; trafik tugagach, Internetga kirish xizmati taqdim etilmaydi.
- [www.humans.uz](http://www.humans.uz) sayti va «HUMANS.uz» ilovasiga kirish uchun chegaralanmagan hajmda trafik

«Super 0 Gigabayt» paketida Telegram mobil ilovasi va brauzer orqali foydalanish uchun har kuni 33 Mb taqdim etiladi. Boshqa Internet resurslaridan va shuningdek 33 Mb kunlik hajmi tugagandan so'ng foydalanish imkoni taqdim etilmaydi.

«Super 0 daqiqa» va «Super 0 Gb» paketlaridan tashqari, Tarif paketiga kiritilgan barcha daqiqa va gigabaytlar Hisob-kitob davrining birinchi kunida taqdim etilib, Hisob-kitob davrining oxirgi daqiqasida nol holatiga keltiriladi. «Super 0 daqiqa» va «Super 0 Gb» paketlariga kiritilgan daqiqa va megabaytlar hisob-kitob davrining birinchi kunida taqdim etiladi, so'ng har kuni soat 00:00 da, kun davomida foydalanilmagan resurslarni nolga tenglashtirish keyingi kunlik resurslarni taqdim etishdan oldin amalga oshiriladi.

Abonent to'lovi Hisob-kitob davrining birinchi soatida yechib olinadi. Mijoz Mobil ilova orqali mustaqil ravishda yoki qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qilgan holda Tarif paketini ulab olishi mumkin.

Abonent tomonidan quyida keltirilgan lineykadan har qanday daqiqalar paketi va har qanday gigabaytlar paketi tanlanganida, tarif paketi ulangan hisoblanadi. Tarif paketining yakuniy narxi taqdim etilgan daqiqalar uchun abonent to'lovi hamda taqdim etilgan gigabaytlar uchun abonent to'lovidan tashkil topgan.

2 sonli jadval

Daqiqalar tarif paketlari	30 kunlik Hisob-kitob davri uchun narxlar
«Super 0 daqiqa» paketi / Super Zero Min Package	0
«150 daqiqa» paketi / 150 Min Package	8000
«600 daqiqa» paketi / 600 Min Package	12000
«2500 daqiqa» paketi / 2500 Min Package	14000
Cheklanmagan daqiqalar / Unlimited Min	15000

GB tarif paketlari	30 kunlik Hisob-kitob davri uchun narxlar
«Super 0 Gb» paketi / Super Zero GB Package	0
«7 Gb» paketi / 7 GB Package	10000
«26 Gb» paketi / 26 GB Package	15000
«40 Gb» paketi / 40 GB Package	30000
Cheklanmagan internet / Unlimited Internet	50000

## 2a-sonli jadval - "Super VIP" paketi

Daqiqalar & GB tarif paketlari	30 kunlik Hisob-kitob davri uchun narxlar
Cheklanmagan daqiqalar / Unlimited Min & Cheklanmagan internet / Unlimited Internet	45000

Daqiqalar & GB tarif paketlari	90 kunlik Hisob-kitob davri uchun narxlar
Cheklanmagan daqiqalar / Unlimited Min & Cheklanmagan internet / Unlimited Internet	135000

## 3 sonli jadval "+1 sovg'aga" paketi

Daqiqalar & GB tarif paketlari	90 kunlik Hisob-kitob davri uchun narxlar
Cheklanmagan daqiqalar / Unlimited Min & 300 Megabyte	30000
Cheklanmagan daqiqalar / Unlimited Min & 21 GB	50000
Cheklanmagan daqiqalar / Unlimited Min & 78 GB	60000
Cheklanmagan daqiqalar / Unlimited Min & 120 GB	90000
99 daqiqa/99 min & Cheklanmagan internet / Unlimited Internet	100000
Cheklanmagan daqiqalar / Unlimited Min & Cheklanmagan internet / Unlimited Internet	130000

"Cheksiz daqiqalar/ Unlimited Min va 300 Megabayt/ 300 Megabyte" paketida Telegramga sutkaga 33mb ham taqdim etiladi.

Istagan "+1 sovg'aga" paketini 90 kunga ulash mumkin. Paketni uning amal qilish muddati tugagunga qadar almashtirib bo'lmaydi.

Istagan "+1 sovg'aga" paketiga istagan boshqa paketdan o'tish uchun ("+1 sovg'aga" paketlar qatoridan tashqari) bir martalik 20000 UZS miqdordagi to'lov ko'zda tutilgan.

Istagan "+1 sovg'aga" paketidan istagan "+1 sovg'aga" paketiga o'tish, shuningdek 2/2-a jadvallardagi istagan boshqa paketga o'tish tekin.

## Barcha paketlar uchun qo'shimcha to'lov:

- Boshqa operatorlar raqamlariga kiritilgan daqiqalar miqdoridan ortiq qo'ng'iroqlar, SMS va MMS'lar uchun tarifkatsiya «Boshlang'ich» tarif rejasi bo'yicha amalga oshiriladi.

"Super 0 daqiqa" va "0 daqiqa" paketlarida O'zbekiston raqamlariga chiqish qo'ng'iroqlari va SMSlar - daqiqasiga/donasiga 180 so'm.

Mijoz mobil ilovada istalgan tarif paketini ulashi mumkin.

## «150 daqiqa», «300 daqiqa», «600 daqiqa», «2 500 daqiqa», «Cheklanmagan daqiqa» opsiyalari (“Option 150 Min”, “Option 300 Min”, “Option 600 Min”, “Option 2500 Min”, “Option Unlimited Min”

Tarif paketi ulangan Hisob-kitob davri yakunlanishigacha Mijoz istalgan payt «150 daqiqa opsiyasi», «300 daqiqa opsiyasi», «600 daqiqa opsiyasi», «2 500 daqiqa opsiyasi», «Cheklanmagan daqiqa opsiyasi» opsiyalarini faollashtirish huquqiga ega. Shu bilan birga, mijozga mos ravishda 150, 300, 600, 2500, Cheklanmagan daqiqa miqdorida qo'shimcha Kiritilgan daqiqalar taqdim etiladi.

### 4-sonli jadval

Opsiya nomi	Ulanish narxi UZS
«150 daqiqa opsiyasi»	8000
«300 daqiqa opsiyasi»	10000
«600 daqiqa opsiyasi»	12000
«2500 daqiqa opsiyasi»	15000
«Cheklanmagan daqiqa opsiyasi»	17000

Pul mablag'i opsiyani ulash vaqtida shaxsiy hisob-raqamdan yechib olinadi.

Osiyalar faqat Tarif paketi ulangan paytida taqdim etiladi va ulangan paketning Hisob-kitob davri tugashigacha amal qiladi, foydalanilmagan daqiqalar keyingi Hisob-kitob davriga o'tkazilmaydi.

«Super 0 daqiqa» paketiga xizmatlar ulanganida qo'ng'iroqlar va SMS-xabarlar narxi paketning amal qilish davrida 0/1 jadvaliga muvofiq o'zgaradi.

**«100 megabayt», «2 gigabayt», «6 gigabayt», «10 gigabayt», «Cheklanmagan gigabayt» opsiyalari, (“Option 2 GB”, “Option 6 GB”, “Option 10GB”, “Option Unlimited GB”)**

Tarif paketi ulangan Hisob-kitob davri yakunlanishigacha Mijoz istalgan payt «100 megabayt», «2 gigabayt», «6 gigabayt», «10 gigabayt», «Cheklanmagan gigabayt» opsiylarini faollashtirish huquqiga ega. Shu bilan birga, Bunda mijozga qo'shimcha ravishda 2, 6, 10, Cheklanmagan GB, 100MB hajmdagi qo'shimcha Internet-trafik taqdim etiladi.

5-sonli jadval

Opsiya nomi	Ulanish narxi UZS
«100 megabayt opsiyasi»	1000
«2 gigabayt opsiyasi»	10000
«6 gigabayt opsiyasi»	12000
«10 gigabayt opsiyasi»	15000
«25 gigabayt opsiyasi»	30000
«Cheklanmagan gigabayt opsiyasi»	50000

Pul mablag'i opsiyani ulash vaqtida shaxsiy hisobvaraqdan yechib olinadi.

Opsiylar faqat Tarif paketi ulangan paytida taqdim etiladi va ulangan paketning Hisob-kitob davri tugashigacha amal qiladi, foydalanilmagan gigabaytlar keyingi Hisob-kitob davriga o'tkazilmaydi.

**“Paket amal qilish muddati tugaguncha GB va daqiqalar to'liq cheksizligi opsiyasi”, “72 soatga GB va daqiqalar to'liq cheksizligi opsiyasi”, “24 soatga GB va daqiqalar to'liq cheksizligi opsiyasi” (Full Unlimited option until next renewal, Full Unlimited option for 72 hours, Full Unlimited option for 24 hours).**

Tarif paketi ulangan Hisob davri tugagunga qadar istagan vaqtda Mijoz quyidagi opsiylarni ulashga haqqli: “Paket amal qilish muddati tugaguncha GB va daqiqalar to'liq cheksizligi opsiyasi”, “72 soatga GB va daqiqalar to'liq cheksizligi opsiyasi”, “24 soatga GB va daqiqalar to'liq cheksizligi opsiyasi”. Bunda Mijozga tegishli 24 soatga, 72 soatga yoki Tarif paketi amal qilish muddati tugaguncha to'liq cheksiz GB va daqiqalar taqdim etiladi. Ushbu opsiylarni cheksiz daqiqalar va/yoki cheksiz GB bo'lgan tarif paketlarida faollashtirib bo'lmaydi

6-sonli jadval

Opsiya nomi	Ulanish narxi UZS
<b>“Paket amal qilish muddati tugaguncha GB va daqiqalar to'liq</b>	

<b>cheksizligi opsiyasi”:</b>	
Hisob davri boshlangandan so’ng birinchi 10 kunda ulansa	50000
Hisob davri boshlangandan so’ng birinchi 10-20 kun ichida ulansa	35000
Hisob davri boshlangandan so’ng birinchi 20-27 kun ichida ulansa	20000
<b>72 soatga GB va daqiqalar to’liq cheksizligi opsiyasi</b>	7500
Hisob davri boshlangandan so’ng 1-27 kun ichida istagan kuni ulash mumkin	
<b>24 soatga GB va daqiqalar to’liq cheksizligi opsiyasi</b>	3000
Hisob davrining istagan kunida ulash mumkin	

Naqd pul va/yoki naqd pul opsiya faollashtirilgan vaqtda Shaxsiy hisob va/yoki Cashback hisobidan yechib olinadi.

5-jadvaldagi istagan variantni ulagandan so'ng, ulangan opsiyaga muvofiq muddat uchun cheksiz daqiqalar va GB taqdim etiladi. Variant ulangan paytdan boshlab 24 yoki 72 soat o'tgandan so'ng, agar kerak bo'lsa, opsiya qayta ulanishi talab qilinadi. To'liq cheksiz opsiyalar faol tarif paketlaridagi daqiqalar va/yoki GBni sarflamaydi. 72 soatlik opsiyani Hisob davri tugaguniga qadar 10 martadan ko'p bo'lmagan miqdorda faollashtirish mumkin. 24 soatlik opsiya Hisob davrida 30 martagacha faollashtirilishi mumkin.

### «Cheklanmagan SMS-xabarlar» opsiyasi (“Option Unlimited Messages”)

Tarif paketiga ulangan Mijoz «Cheklanmagan SMS xabarlar» xizmatini ulab olishi mumkin. Mijozga O'zbekiston raqamlariga cheklanmagan miqdorda SMS jo'natish imkoniyati taqdim etiladi.

«Cheklanmagan SMS-xabarlar» opsiyasi uchun abonent to'lovi Super VIP 90 kunlik to'plam uchun 0 so'm, boshqa paketlar uchun – 7000 so'm. Pul mablag'lari xizmat ulanishi vaqtida Shaxsiy hisobvaraqdan bir vaqtning o'zida yechib olinadi.

Xizmat ulangan vaqtdan boshlab, Tarif paketining Hisob-kitob davri tugashigacha amal qiladi. Agar Mijoz ulangan Tarif paketining Hisob-kitob davri tugagach u avtomatik ravishda uzaytirilsa, xizmat ham avtomatik ravishda yangi Hisob-kitob davriga uzaytiriladi.

Opsiya avtomatik ravishda uzaytirilishini Mijoz o'zi istagan payt Ilovada yoki Qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qilgan holda o'chirib qo'yishi mumkin.

### «Cheklanmagan Ilovalar» opsiyalari

Tarif paketiga ulangan Mijoz Tarif paketiga quyidagi Cheklanmagan Ilovalar xizmatlarini ulab



olishi mumkin: «Cheklanmagan Instagram», «Cheklanmagan PUBG», «Cheklanmagan TikTok», «Cheklanmagan Telegram», «Cheklanmagan Whatsapp», «Cheklanmagan IMO», «Cheklanmagan YouTube», «Cheklanmagan Facebook», «Cheklanmagan Likee», «Cheklanmagan Odnoklassniki», «Cheklanmagan Yandex Music»

Xizmatga ulanishda tegishli resurs trafigi (rasmiy mobil ilova orqali ham, brauzer orqali ham) Tarif paketining gigabaytalarini sarflamaydi va hatto Tarif paketi doirasida taqdim etilgan trafik gigabaytlari tugaganidan keyin ham tezlik bo'yicha cheklovlarsiz ishlaydi. Mijoz o'zi istagan miqdorda Cheklanmagan ilovalar xizmatlarini ulab olishi yoki birortasini ham ulamasligi mumkin. Cheklanmagan ilovalarni ulash ilova ichidagi kontent obunasini xarid qilishni o'z ichiga olmaydi.

## 7-sonli jadval

Cheklanmagan Ilovalar opsiyalari	Hisob-kitob davri uchun xizmat narxi				
	«Super 0 Gb» paketi / 300MB	«7 Gb» paketi / 21GB	«26 Gb» paketi / 78 GB	«40 Gb» paketi / 120 GB	Boshqa arxivlangan (ulanish uchun yopiq) paketlar
«Cheklanmagan Whatsapp» / Unlimited Whatsapp	6000	3500	2000	0	7000
«Cheklanmagan IMO» / Unlimited IMO	6000	3500	3500	3500	7000
«Cheklanmagan TikTok» / Unlimited TikTok	8000	5000	5000	5000	10000
«Cheklanmagan Instagram» / Unlimited Instagram	8000	5000	2000	0	10000
«Cheklanmagan PUBG» / Unlimited PUBG	8000	5000	5000	5000	10000
«Cheklanmagan Facebook» / Unlimited Facebook	8000	5000	2000	0	10000
«Cheklanmagan Likee» / Unlimited Likee	8000	5000	5000	5000	10000
«Cheklanmagan Odnoklassniki» / Unlimited Odnoklassniki	8000	5000	5000	5000	10000
«Cheklanmagan Yandex Music» / Unlimited Yandex Music	12000	6000	6000	6000	12000

Music					
«Cheklanmagan Telegram» / Unlimited Telegram	10000	7000	2000	0	7000
«Cheklanmagan YouTube» / Unlimited Youtube	15000	15000	15000	7500	15000

“+1 sovg’aga” paketlar qatori uchun - 90 kunga 300MB, 21GB, 78GB, 120GB - cheksiz opsiyalar 90 kunga darhol 30 kunlik narxda ulanadi.

Abonent to’lovi opsiya ulangan Tarif paketiga bog’liq bo’ladi. Osiyalar uchun abonent to’lovi Shaxsiy hisobvaraقدan opsiya ulanishida bir vaqtning o’zida yechib olinadi. «Cheklanmagan Yandex Music» tarif opsiyasi yangi ulanishlar uchun mavjud emas.

Osiyalar ulangan vaqtdan boshlab ular ulangan Tarif paketining Hisob-kitob davri tugaguniga qadar amal qiladi. Agar Hisob-kitob davri tugagach Mijoz ulagan Tarif paketi avtomatik ravishda uzaytirilsa, opsiya ham yangi Hisob-kitob davriga avtomatik tarzda uzaytiriladi.

Osiyaning avtomatik ravishda uzaytirilishini Mijoz o’zi istagan payt Ilovada yoki Qo’llab-quvvatlash markaziga murojaat qilgan holda o’chirib qo’yishi mumkin.

Yandeks Turbo, Opera Turbo hamda proksi-server, anonimayzer, VPN va boshqa shunga o’xshash texnologiyalardan foydalanishda, servislarga cheksiz kirish imkoniyati taqdim etilmaydi. Bunday holatlarda trafik Tarif paketi doirasida taqdim etilgan gigabaytlarni sarflaydi.

### “Bir kunlik internet tarqatish” opsiyasi

“Cheksiz Internet” tarif paketiga ulangan mijoz “Bir kunlik internet tarqatish” Osiyasini Tarif paketiga ulashi mumkin. Osiyani ulashda Mijoz Tarif Paketi Gigabayti trafigiga boshqa qurilmalarga kirish nuqtasi sifatida Mijozning SIM-kartasi o’rnatilgan Abonent qurilmasidan foydalanishdagi cheklovlar 24 soat davomida amal qilmaydi.

Osiya uchun abonent to’lovi 1 000 so’mni tashkil qiladi. Pul mablag’lari opsiyani ulash vaqtida Shaxsiy hisobvarag’idan shu zahoti yechib olinadi.

Osiya ulanish paytidan boshlab 24 soat mobaynida amal qiladi. Osiya ulangan paytdan 24 soat o’tgach, zarurat bo’lsa, Osiyani qayta ulash talab qilinadi.

## “30 kunlik internet tarqatish” opsiyasi, “90 kunlik internet tarqatish”

30 kunlik hisob-kitob davri bilan "Cheksiz Internet" Tarif paketiga ulangan mijoz, ushbu tarif paketiga “30 kunlik internet tarqatish” Opsiya ulashi mumkin. 90 kunlik hisob-kitob davri bilan "Super Vip" Tarif paketiga ulangan mijoz, ushbu tarif paketiga “90 kunlik internet tarqatish” Opsiya ulashi mumkin. Opsiya ulashda, Mijoz Tarif Paketi Gigabayti trafigiga boshqa qurilmalarga kirish nuqtasi sifatida Mijozning SIM-kartasi o'rnatilgan Abonent qurilmasidan foydalanishdagi cheklovlar amal qilmaydi.

Opsiya uchun abonent to'lovi 5 000 so'mni tashkil qiladi, “Super VIP” tarif paketi uchun 90 kunga 0 so'm. Pul mablag'lari opsiya ulash vaqtida Shaxsiy hisobvarag'idan shu zahoti yechib olinadi.

Opsiya ulanish paytidan boshlab, ulangan Tarif paketining Hisob-kitob davri tugaganicha amal qiladi. Agar mijoz ulagan Tarif paketining Hisob-kitob davri tugaganidan keyin avtomatik ravishda uzaytirilsa, opsiya ham avtomatik ravishda yangi Hisob-kitob davriga uzaytiriladi.

Avtomatik uzaytirishni Mijoz istalgan paytda Mobil Ilova yoki qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish orqali o'chirishi mumkin.

### «Tungi cheklanmagan gigabayt» opsiyasi

“Cheksiz internet” tarif paketidan tashqari istalgan tarif paketiga ulangan mijoz “Tungi cheklanmagan gigabayt”, Super-Vip opsiya ulashi mumkin. Opsiya ulanganda har kuni soat 00:00 dan 06:00 gacha iste'mol qilingan trafik Tarif paketi bo'yicha taqdim qilingan gigabayt trafik tugaganidan keyin ham Tarif paketining gigabaytlarini sarf qilmaydi.

8-sonli jadval

Opsiya nomi	Ulanish narxi UZS		Boshqa Tarif paketlari
	Super 0 GB paketi	10GB, 24GB, 26GB, 40GB paketi	
«Tungi cheklanmagan gigabayt» Opsiyasi	3000	2000	3000

Opsiya uchun abonent to'lovi Shaxsiy hisobvaraqdan opsiya ulanishida bir vaqtning o'zida yechib olinadi.

Opsiya ulangan vaqtdan boshlab ular ulangan Tarif paketining Hisob-kitob davri tugaganigacha qadar amal qiladi. Agar Hisob-kitob davri tugagach Mijoz ulagan Tarif paketi avtomatik ravishda

uzaytirilsa, opsiya ham yangi Hisob-kitob davriga avtomatik tarzda uzaytiriladi.

Opsiyaning avtomatik ravishda uzaytirilishini Mijoz o'zi istagan payt Ilovada yoki Qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qilgan holda o'chirib qo'yishi mumkin.

## **Avtomatik uzaytirish**

Agar Mijoz Tarif paketlarining biriga ulangan bo'lsa va Hisob-kitob davrining tugash vaqtiga uning Shaxsiy hisobvarag'ida Tarif paketini uzaytirish uchun yetarli pul mablag'lari bo'lsa, Shaxsiy hisobvaraقدan amaldagi Tarif paketini to'liq Hisob-kitob davriga uzaytirish uchun abonent to'lovi yechib olinadi. «Cheklanmagan SMS xabarlar» va/yoki Cheklanmagan Ilovalar xizmatlari ham avtomatik ravishda uzaytiriladi. Agar Tarif paketiga «Cheklanmagan SMS-xabarlar» opsiyalari va/yoki Cheklanmagan Ilovalar opsiyalari ulangan bo'lsa, paket faqat ushbu opsiyalar bilan birga uzaytirilad.

Agar Tarif paketini unga ulangan barcha xizmatlar bilan birga avtomatik uzaytirish uchun pul mablag'lari yetarli bo'lmasa, Tarif paketi opsiyalarsiz uzaytirilmaydi (Mijoz xizmatlarni avtomatik uzaytirishni o'chirib qo'ygan holat bundan mustasno), xizmatlar quyidagi shartlar asosida tarifatsiya qilinadi:

Paket tugaganidan keyin 15 kun davomida:

O'zbekiston Respublikasi raqamlariga SMS — har biri 180 so'mdan;

Kiruvchi qo'ng'iroqlar daqiqasi — 0 so'm;

O'zbekiston Respublikasi abonent raqamlariga chiquvchi qo'ng'iroqlarning daqiqasi — 180 so'm  
Internet tarmog'iga kirish taqdim etilmaydi.

Moliyaviy cheklanish holatiga tushgandan 15 kun o'tgach, istalgan Tarif paketi "Super 0 daqiqa va Super 0 GB" Tarif paketiga avtomatik tarzda o'tkaziladi. Mijoz Hisobvarag'i hisobi to'ldirilgunga qadar manfiy bo'ladi, biroq tarmoq ichidagi chiqish qo'ng'iroqlari uchun kuniga bepul 20 daqiqa va Telegram'ga kirish uchun kuniga bepul 33 MB foydalanishga imkoniyati bo'ladi. Mijoz Qarzni to'laganidan so'ng "Super 0 daqiqa va Super 0 GB" Tarif paketini istalgan boshqa tarif paketiga almashtirishi mumkin, agar Shaxsiy hisobvarag'i balansida yangi Tarif paketiga mos keladigan mablag' mavjud bo'lsa.

## **Foydalanish bo'yicha cheklovlar**

Tariflar va Tarif paketlari bitta Abonent qurilmasida bitta SIM-kartaga nisbatan foydalanish uchun mo'ljallangan. Abonent qurilmasiga o'rnatilgan SIM-kartadan bunday Abonent qurilmasiga simli va simsiz kanal orqali ulangan boshqa qurilmalar bilan Provayder aloqa xizmatlaridan foydalanishning qo'shimcha imkoniyatlarini ta'minlash uchun foydalanish faqat "Super 0 GB" va "Cheksiz Internet" Tarif paketlarida ruxsat etilmaydi, "Cheksiz internet" Tarif paketida "Bir kunlik internet tarqatish" tarif opsiyasini ulash bundan mustasno. Qolgan Gigabayt Tarif paketlarida boshqa qurilmalar tomonidan sarf qilinadigan trafik Cheksiz Ilovalarning ulangan Opsiylari mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, Tarif paketi doirasida maksimal tezlikda taqdim etilgan hajmni sarflaydi. Tarif paketi doirasida taqdim etilgan trafik hajmi ishlatib tugatilganida boshqa qurilmalar tomonidan trafik sarf qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Barcha Tariflarda, Tarif paketlarida piring fayl almashuvi tarmoqlaridan foydalanishda (jumladan, BitTorrent va shunga o'xshash fayllarni taqsimlagan holda tarqatish texnologiyalari yordamida) Tarmoq resurslaridan foydalanayotgan servislar uchun tezlik soniyasiga 32 kbit'gacha chegaralanadi.

Tariflar va Tarif paketlari smartfonlar yoki planshetlarda foydalanishga mo'ljallangan, agar Arizada boshqa shartlar ko'rsatilmagan bo'lmasa. Smartfon yoki planshetdan tashqari boshqa qurilmalardan foydalanilganligi aniqlangan holatlarda barcha Tariflarda, Tarif paketlarida tezlik 0 kbit/s gacha chegaralanishi mumkin. SIM-kartadan smartfon yoki planshetda foydalanilsa ushbu cheklanish amal qilishda davom etmaydi.

Mijozlarning manfaatlari yo'lida, tasodifiy qo'ng'iroqlarning salbiy oqibatlaridan saqlanib qolish maqsadida Provayder ovozli ulanish davomlilikini bir soat bilan chegaralab qo'yishga haqli.

Xizmatlarni, Tarifni, Tarif paketlarini boshqarish HUMANS.uz mobil ilovasidan (Ilovadan) foydalangan holda amalga oshiriladi. Ilovani Mijoz o'z abonent qurilmasiga o'rnatib olishi kerak. Mijoz tomonidan Ilova o'rnatilmaganida Mijoz uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar uchun Provayder javobgar emas.

Roumingda Mobil internet xizmatiga ega bo'lish uchun Mijozning Shaxsiy hisobvarag'idagi mablag' 30 000 so'mdan kam bo'lmasligi kerak.

### **Tarifni o'zgartirish**

Tarif paketidan farq qiluvchi Tarifda bo'lgan Mijoz Tarif paketini Ilovada yoki Aloqa markaziga murojaat qilgan holda ulab olishga haqli. Tarif paketiga o'tish Ilovada o'zgartirish paytida yoki Aloqa markazi xodimi tomonidan o'zgartirish bo'yicha harakatlar bajarilganida amalga oshadi.

Tarif paketiga ulangan Mijoz Tarif paketini Ilovada yoki Aloqa markaziga murojaat qilinganida o'zgartirishga haqli, yangi paketga o'tish quyidagi qoidalarga ko'ra, keyingi Hisob-kitob davri birinchi daqiqdasidan yoki darhol amalga oshiriladi:

## **Paketni darhol o'zgartirish**

“Super 0 daqiqa + Super 0 GB” paketi uchun - mijoz tanloviga ko'ra istagan paketga darhol almashtirishi mumkin. Qolgan tarif paketlari uchun faqat 30 kunga “Cheksiz internet plus Cheksiz daqiqalar” paketiga, shuningdek 90 kunga “Super VIP” tarif paketiga va “+1 sovg'aga” paketlariga darhol almashtirish imkoniyati mavjud. “Super VIP” paketlaridan “+1 sovg'aga” paketiga o'tib bo'lmaydi.

"Super 0 daqiqa + Super 0 GB" tarif paketi uchun mijoz tanlagan har qanday paketni darhol o'zgartirish imkoniyati mavjud. Boshqa tarif paketlari uchun 30 kunlik "Cheksiz internet + Cheksiz daqiqa" paketiga, shuningdek, 90 kunlik "Super-VIP" tarif paketiga darhol o'zgartirish mumkin.

Pakenti darhol o'zgartirgandan so'ng, eski tarif paketi va uning opsiyalari uchun (agar mavjud bo'lsa) avansi foydalanilmagan qoldig'i naqd pul balansiga qaytariladi. Avansning qoldig'i paketning oxirigacha bo'lgan kunlar soniga mutanosib ravishda hisoblanadi va foydalanilgan daqiqalar va GB resursini hisobga olmaydi. Keshbek bilan to'langan paket narxining qismi qaytarilmaydi yoki qayta hisoblanmaydi.

Istagan “+1 sovg'aga” paketiga istagan boshqa paketdan o'tish uchun (“+1 sovg'aga” paketlar qatoridan tashqari) bir martalik 20000 UZS miqdordagi to'lov ko'zda tutilgan.

Istagan “+1 sovg'aga” paketidan istagan “+1 sovg'aga” paketiga o'tish, shuningdek 2/2-a jadvallardagi istagan boshqa paketga o'tish tekin.

Tariflarni, Tarif rejalarini (jumladan Tarif paketlari) o'zgartirish uchun to'lov belgilanmaydi.

## **«Raqamni o'zgartirish» (Number Change) xizmati**

Xizmat Mijozga uning amaldagi Abonent raqamini yangi Abonent raqamiga almashtirish imkonini beradi. Yangi abonent raqami Mijoz tomonidan xizmat ko'rsatish vaqtida mavjud bo'lgan Provaydarning raqamlash resursidan tanlanadi. Xizmat narxi 3000 UZS tashkil qiladi.

Xizmatga buyurtma berishni oldindan amalga oshirilgan buyurtmaning raqami yoki QR-kodini Provayderga taqdim etish yoki Ilova orqali amalga oshirish mumkin.

Xizmatni taqdim etish muddati provayder tomonidan ma'lumot olingandan so'ng darhol

hisoblanadi xizmatga ulanish va buning uchun to'lash. Xizmat narxi (agar mavjud bo'lsa) xizmat ko'rsatilayotgan vaqtda Proвайder tomonidan Shaxsiy kabinetdan yechib olinadi.

“Raqam o'zgartirish” xizmatini ko'rsatishda raqam almashtirish imkoniyatlari miqdori amaldagi Shartnoma muddati mobaynida 2 ta bilan cheklanga.

## **«Alohida toifadan raqam tanlash» (Selection of Special Phone Number) xizmati**

“Raqamni o'zgartirish” xizmatiga qo'shimcha ravishda Mijoz “Alohida toifadan raqam tanlash” xizmatini xarid qilishi mumkin. “Alohida toifadan raqam tanlash” xizmati Mijozga Proвайdarning xizmat ko'rsatish paytida bo'sh bo'lgan raqamlar resursidan ma'lum mezonlarga mos bo'lgan Abonent raqamini tanlash imkonini beradi.

Abonent raqami mezonlari va tegishli Xizmat narxi [jadvalda](#) ko'rsatilgan.

“Alohida toifadan raqam tanlash” xizmatiga buyurtma berishda “Raqamni o'zgartirish” xizmatining narxi 0 so'mni tashkil qiladi. Xizmatga oldindan buyurtmani shakllantirish orqali (Shartnoma tuzish paytigacha), shuningdek Ilovada Shartnomaning amal qilish muddati davomida istalgan payt buyurtma berish mumkin.

1. Proвайderga oldindan berilgan buyurtma raqami yoki QR-kodni taqdim etgan holda buyurtma berish mumkin.

Mijozlardan test davri mobaynida buyurtma amalga oshirilgan vaqtdan boshlab 7 kun ichida xizmatni taqdim etishda to'lov undirilmaydi.

Test davri davomida Mijoz xizmatni belgilangan narx evaziga ulash maqsadini Mobil ilovada tasdiqlab, Shaxsiy hisobvarag'iga zarur bo'lgan mablag'ni kiritishi yoki xizmatdan bosh tortishi kerak. Xizmatni ulash maqsadini faqat Proвайdarning Mobil ilovasi orqali tasdiqlash mumkin, tasdiqlashning alternativ usullari mavjud emas. Agar Mijoz xizmatdan bosh tortsa, Mijozga shartnoma tuzishda unga ajratilgan Abonent raqamidan foydalangan holda xizmat ko'rsatishda davom etiladi. O'tish test davri tugagan sanadan boshlab ikki hafta ichida amalga oshiriladi. Test davrining amal qilish muddati xizmat ulangan paytdan, xizmatdan voz kechilganida esa voz kechilgan vaqtdan boshlab to'xtaydi. Agar Mijoz test davri tugashigacha Ilovada xizmatni ulashni tasdiqlamasa va Shaxsiy hisobvarag'iga xizmat narxini kiritmasa, xizmat ulanmagan hisoblanadi va Mijozga unga shartnoma tuzishda ajratilgan Abonent raqamidan foydalanilgan

holda xizmat ko'rsatishda davom etiladi. Xizmat narxi Provayder tomonidan Mijoz xizmatni ulash maqsadini tasdiqlagan va Shaxsiy hisobvarag'iga xizmat narxi summasini kiritgan kalendar oyi davomida Shaxsiy hisobvaraقدan yechib olinadi. Xizmat faqat agar Mijoz Ilovada xizmatni ulash maqsadini tasdiqlasa va Shaxsiy hisobvaraقدa xizmatni to'lash uchun yetarli mablag' bo'lsa ulangan hisoblanadi.

2. Xizmatni istalgan vaqtda Ilovada Shartnoma amal qilish muddati mobaynida buyurtma qilish mumkin. Xizmatni buyurtma qilish yangi Abonent raqamini tanlash va Ilovadagi yo'riqnomalarga amal qilish lozim.

Xizmat taqdim etilish muddati – Provayderga xizmatga buyurtma berilgani haqida ma'lumot kelib tushgan zahoti. Xizmat ko'rsatilishi uchun Mijozning Shaxsiy hisobvarag'ida xizmatga buyurtma berish vaqtida xizmatni to'lash uchun zarur bo'lgan summa bo'lishi kerak. Ushbu summa Provayder tomonidan Xizmat ko'rsatilishi paytida shaxsiy hisobvaraقدan yechib olinadi. Shaxsiy hisobvaraقدa mablag' yetarli bo'lmasa, xizmat ko'rsatilmaydi.

Agar biron-bir sababga ko'ra xizmat Mijoz tomonidan belgilangan muddatlarda to'lanmagan bo'lsa, Mijozga Shartnomada ko'rsatilgan Abonent raqamidan foydalangan holda xizmat ko'rsatish davom ettiriladi. Mijozni Shartnomada ko'rsatilgan raqamga o'tkazish Provayder tomonidan xizmat uchun to'liq to'lanmaganlik fakti tasdiqlangach va bu haqda Mijozni xabardor qilgandan keyin amalga oshiriladi. Agar biron-bir sababga ko'ra Provayder Shartnomada ko'rsatilgan Abonent raqamidan foydalangan holda mijozga xizmat ko'rsatishni davom ettira olmasa, Provayder Mijozga yangi raqam ajratadi va bu haqda uni xabardor qiladi.

### **«Alohida toifadan raqam taqdim etish» (Provision of Special Phone Number) xizmati**

Mijoz «Alohida toifadan raqam tanlash» xizmatiga qo'shimcha ravishda «Alohida toifadan raqam taqdim etish» xizmatini xarid qilishi mumkin. «Alohida toifadan raqam taqdim etish» xizmati Mijozga Provayderning xizmat ko'rsatish vaqtida band bo'lmagan raqamlash resursidan ma'lum mezonlarga mos keladigan Abonent raqamini ma'lum davrga (Xizmatning amal qilish davriga) tanlash imkonini beradi. Abonent raqami mezonlariga qarab Mijoz «Alohida toifadan raqam taqdim etish» xizmatining amal qilish davrini tanlashi mumkin. Tegishli xizmat narxi [jadvalda](#) ko'rsatilgan.

«Alohida toifadan raqam taqdim etish» xizmatiga buyurtma berilganida «Raqamni almashtirish» va «Alohida toifadan raqam tanlash» xizmatlarining narxi 0 so'mni tashkil qiladi (agar Mijoz xizmatdan tanlangan amal qilish davri davomida to'liq foydalansa).



Xizmat narxi mijoz tanlagan xizmatning amal qilish muddatidan kelib chiqadi.

Xizmatga oldindan buyurtma tuzish orqali (Shartnoma tuzishgacha), shuningdek Ilovada Shartnomaning amal qilish muddati davomida iatalgan payt buyurtma berish mumkin.

## **"Alohida toifadan raqam taqdim etish" xizmatini ko'rsatish tartibi**

1. Xizmatga dastlabki buyurtma faqat Mobil ilova orqali va faqat Abonent raqamining dastlabki buyurtmasi rasmiylashtirilganida va Shartnoma tuzilishida Provyayderga ushbu buyurtmaning raqami yoki QR-kodi taqdim etilganida amalga oshirish mumkin.

Xizmatlar xizmat ulangan vaqtdan boshlab 24 soat ichida ko'rsatila boshlaydi.

Xizmat faqat Mijoz Ilovada Xizmatga buyurtma berish maqsadini tasdiqlasa va Shaxsiy hisobvaraqda xizmat amal qiladigan bir davrni to'lashga yetarli mablag' bo'lsa, ulangan hisoblanadi. Agar xizmat uchun buyurtma tasdiqlangan vaqtdan boshlab 7 kun ichida mijozning Shaxsiy hisobvarag'ida xizmat amal qiladigan bir davrni to'lash uchun yetarli mablag' bo'lmasa, xizmat ulanmaydi, Mijozga unga Shartnoma tuzilishida ajratilgan Abonent raqamidan foydalangan holda xizmat ko'rsatiladi. O'tish yuqorida ko'rsatilgan sanadan boshlab ikki hafta davomida amalga oshiriladi.

Xizmat narxi Mijoz tomonidan tanlangan xizmatning amal qilish davriga bog'liq. Agar xizmat uchun buyurtma va xizmatdan foydalanishning birinchi davri uchun to'lov bir kalendar oyida amalga oshirilgan bo'lsa, xizmat uchun buyurtma tasdiqlangan sanadan boshlab har 30 kunda pul yechiladi. Agar xizmat buyurtmasini tasdiqlash va xizmatdan foydalanishning birinchi davri uchun to'lov qilish har xil kalendar oylarida amalga oshirilgan bo'lsa, xizmat narxi buyurtma tasdiqlangan oydan keyin keladigan birinchi kalendar oyidan boshlab har 30 kunda yechib olinadi.

2. Xizmatga Ilova orqali Shartnomaning amal qilish muddati davomida istalgan payt buyurtma berish mumkin. Xizmatga buyurtma berish uchun yangi abonent raqamini tanlash va keyinchalik Ilovaning ko'rsatmalariga qarab ish tutish talab etiladi.

Xizmatni taqdim etish muddati — Provyayderga xizmatga buyurtma berilganligi haqida ma'lumot kelib tushgan zahoti. Xizmat ko'rsatilishi uchun unga buyurtma berilgan vaqtda Mijozning Shaxsiy hisobvarag'ida xizmatning bitta davri uchun to'lov qilish uchun yetarli mablag' bo'lishi kerak. Ushbu summa xizmatni ko'rsatish vaqtida shaxsiy hisobvaraqdan Provyayder tomonidan yechib olinadi. Shaxsiy hisobvaraqda mablag' yetarli bo'lmaganida xizmat ko'rsatilmaydi.

Xizmat uchun navbatdagi to'lovni yechib olish paytida Shaxsiy hisobda amaldagi xizmatning

tegishli davri to'lovi uchun yetarlicha mablag' bo'lishi kerak. Bunda Mijoz xizmatdan foydalanish uchun o'z ixtiyoriga ko'ra istalgan miqdorda oldindan avan pulini kiritishi mumkin. Agar Mijoz amaldagi xizmat davri uchun 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida to'lov narxini to'lamasa, xizmat ko'rsatish to'xtatiladi (xizmat to'lanmagan amaliy davri boshidan buyon ko'rsatilmagan hisoblanadi). Bunda xizmatdan muddatidan oldin voz kechganligi uchun avan puli sifatida kiritilgan pul miqdorda jarima puli yechiladi. Bu holatda Mijozga xizmat ko'rsatish Provayder lozim topishiga qarab, shartnoma tuzilgan paytdagi Abonent raqami, yoki boshqa raqam taqdim etiladi. O'tish bir necha kun ichida amalga oshiriladi. O'tish va abonent raqami kuni to'g'risida Mijoz SMS-xabar yoki llova orqali xabardor etiladi va Mijozga Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish davom ettiriladi. Agar Mijoz muddatdan oldin xizmat narxini to'lamaganligi sababli aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomani bekor qilganidan keyin 30 (o'ttiz) kun ichida qo'llab-quvvatlash xizmatiga xizmat ko'rsatilishini tiklash uchun ariza bilan murojaat qilsa, Mijoz to'lanmagan butun muddat uchun xizmat narxini to'lasa, xizmat ko'rsatilishi qayta amalga oshirilishi mumkin. Bunda Mijoz to'lagan jarima summasi xizmat narxi sifatida qabul qilinadi. «Alohida toifadan raqam taqdim etish» xizmatining Mijozlar orasiga kirib borishini oshirish maqsadida 04.11.2020 dan 03.11.2025 gacha bo'lgan davr mobaynida Provayder tomonidan aksiya o'tkaziladi va ushbu aksiyaga muvofiq, aksiya amal qilishi davrida «Alohida toifadan raqam taqdim etish» xizmatini ulagan, xizmatdan uning tanlangan amal qilish davri davomida to'liq foydalangan va muddatidan oldin xizmat ko'rsatilishidan voz kechmagan Mijozlarga tanlangan xizmatning amal qilish davri tugashi bilan Xizmat qo'shimcha to'lov olinmasdan yangi muddatga avtomatik ravishda taqdim etiladi.